

*Nizomiy nomidagi TDPU*

*Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi*

*4-bosqich talabasi Abdulla Rashidov*

***Anotatsiya:*** *Ushbu maqolada XIX-XX asr o'rtalari Rossiya sharqshunoslari tomonidan yurtimiz madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yoritishda muhim ahamiyatga ega asarlar tavsifi, rus sharqshunoslari tomonidan o'rganilgan masalalar va fikr-mulohazalar keltirilgan.*

Yurtimiz o'z mustaqilligiga erishgach, Turkiston mintaqasida sovet rejimiga qarshi qurolli harakat tarixini ilmiy jihatdan xolisona o'rganish uchun ob'ektiv sharoit yuzaga keldi. O'tgan yigirma yildan ziyodroq vaqt ichida bu masalani o'rganish va tahlil qilishda yaxshi natijalarga erishildi. Turkiston mintaqasida 1918-1924 yillarda sovet tuzumiga qarshi olib borilgan istiqloqlilik harakati tarixini mukammal o'rganish uchun oxirgi yillarda muhim izlanishlar amalga oshirildi. Ushbu tarixni qayta tiklash, aniqrog'i, qanday bo'lsa, ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan keng ko'lamdagi yangi manbalar hisobiga boyitilgan hujjatlar asosida yoritib berilgan ma'lumotlar majmuini tasniflash va umumlashtirish, O'zbekiston va chet ellardagi tarixshunoslikka oid merosning istiqbolli yo'nalishlarini nazarda tutishga imkon beradigan ilmiy-tarixiy fikrlarni o'rganish va idrok etish, masalalarni ochib berishga asoslanadi.

Mamlakatimiz tarixini sovet olimlari tomonidan o'rganilishni keling Xiva xonligi misolida ko'rib chiqamiz. Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosatida ochiq-oydin tub xalqlar turmushining yerga urilishi ko'zga tashlansa, sovet tuzumida esa davlat mafkurasi baynalmilalchilikka asoslanib, uning tub mohiyati barcha millat va elatlarga teng huquq va imkoniyatlar berishini nazarda tutar edi. Uning mohiyatida esa, totalitar davlat tizimi sharoitida davlat tuzilmalarining avvalgi hukmronligini rivojlantirish va mustahkamlash, mintaqa iqtisodini xom-ashyo yetishtirishga yo'naltirish, milliy

madaniyat va qadriyatlarni oyoq osti qilish, rus tilining rasmiy til sifatidagi yetakchi mavqeini mustahkamlab, mahalliy xalqlarga nisbatan ruslashtirish siyosatini amalga oshirish yotar edi. 1936-yil P.P. Ivanov tomonidan Sankt-Peterburg shahridagi M.Y. Saltikov- Shedrin nomidagi milliy kutubxonaning ro‘yxatga olinmagan fondidan Xiva xonlari arxivi topib o‘rganilgan. Bu arxiv 1873-yilda rus qo‘shinlarining Xivaga qilgan yurishidan keyin ko‘p vaqt o‘tmay, Sankt-Peterburgga olib ketilgan, biroq keyinchalik unutib yuborilgan. O‘rta Osiyo kutubxonalarida bu noyob arxivning bir qismigina saqlanib qolgan. Shu tariqa, xonlik arxivining hech kimga ma‘lum bo‘lmagan 11000 varaqdan ortiq bo‘lgan hujjatlari o‘rganilgan. Bundan tashqari P.P. Ivanov tomonidan Xiva xonlari arxivining topib o‘rganilishi katta hodisa bo‘ldi. Ushbu tadqiqot natijalari kitob holida nashr qilingan bo‘lib, unda Xiva xonligining XIX asrga oid ijtimoiy-siyosiy tarixi, hamda hujjatlar tahlili masalasiga e‘tibor qaratilgan<sup>1</sup>. Muallifning bu tadqiqotini asosiy tadqiqotlar qatoriga kiritish mumkin, chunki ushbu asar Xiva xonligining arxiv hujjatlari bo‘yicha yo‘l ko‘rsatkich ko‘rinishiga ega bo‘lib, ko‘plab yangi tadqiqotlar uchun boshlang‘ich manba vazifasini bajardi. Ushbu asarning ilk bobi “Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o‘rganishda arxivning tutgan o‘rni” deb nomlanib, muallif unda Xiva xonlari arxivi, uning o‘rganilishi, o‘zining tahliliy fikr va mulohazalarini berga B.V. Lunin tadqiqotlarida esa rus sharqshunosligida O‘rta Osiyo xonliklarining tarixshunoslik tahlili va tadqiqotchilar izlanishlari natijalari keng tahlil etilgan. Muallif rossiyalik sharqshunoslar X.D. Fren va P.I. Lerxlarning O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan noyob qo‘lyozmalar nomini aniqlaganligini, Xiva xonligida o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan turli boyliklar bayon qilingan maxsus dasturni Turkiston general-gubernatorligiga taqdim etganliklarini va boshqa bir qator ma‘lumotlarni qayd etgan<sup>2</sup>. Bundan tashqari, muallif Rossiya imperatori Nikolay I O‘rta Osiyo shu jumladan, Xiva xonligi hududidagi tabiiy boyliklarni ilmiy o‘rganishga katta e‘tibor qaratgani va shu maqsadda 1854-yilda Sankt-Peterburg

---

<sup>1</sup> Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. / Исследование и описание документов с историческим введением // Новые источники для истории Средней Азии. – Л.: Издание Государственной Публичной Библиотеки, 1940. –С. 287.

<sup>2</sup> Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении... – С. 76

universitetida Sharq tillari bo'limini fakultetga aylantirish haqida farmon chiqarganini qayd qiladi. Shu bilan birga, 1857-yil oktyabr oyida V.V. Grigorev (1818 – 1881) tashabbusi bilan Sharq fakulteti kengashi hukumatga ariza berib, Sharqiy Osiyo tarixi va musulmonlar Osiyosi tarixi kafedralari ochishni iltimos qilgani, bu bilan sharq tillarini yaxshi biladigan mutaxassislar tayyorlash tezlashtirilganini alohida ta'kidlaydi. I.V. Pogorelskiy Xiva xonligining iqtisodiy va siyosiy masalalariga Rossiyaning xonlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yondashgan. Shu bilan birga muallif asarida Rossiya bosqinidan keyin Xivadagi qozilik sudining ahvoli xususida ham keng qamrovli ma'lumotlar mavjud. XX asrning o'rtalarida Xorazm vohasidagi tarixiy obidalarni arxeologik va etnografik jihatdan o'rganish ishlari keng miqyosda amalga oshirilgan bo'lib, bunda S.P. Tolstov boshchiligidagi ekspeditsiya faoliyati alohida o'rin tutadi. Uning tadqiqotlarida Xorazmning miloddan avvalgi V ming yilliklaridan XX asrning 70 yillarigacha bo'lgan ma'lumotlar mavjud. 1964-yil Rossiya Milliy kutubxonasida mavjud bo'lgan Xiva xonligi tarixiga oid 3000 dan ziyod hujjatlar O'zbekiston Davlat arxividan o'rin olib, ushbu hujjatlarda Xiva xoni nomiga yozilgan arznomalar, turli amaldorlarga murojaatnomalar, soliq yig'ini, turli tadbirlar xususida ma'lumotlar qayd qilingan. Ushbu arxivda Xiva xonligi tarkibida bo'lgan Turkmaniston, Qoraqalpog'iston va Qozog'istonning bir qismi tarixiga oid juda ko'p materiallar o'z aksini topgan bo'lib, O'rta Osiyoning Rossiya, Eron, Hindiston mamlakatlari bilan olib borgan aloqalari to'g'risida ham ma'lumotlarmavjud<sup>3</sup>. XIX – XX asr boshlarida xonlikda hunarmandchilik sohasi ham rivojlangan bo'lib, hunarmandlar teri va qo'y ichagini ishlash, paxtani qo'lda tozalash, ipakdan ip tayyorlash, jundan gilam, palas, kigiz, qamishdan chipta to'qish, dehqon xo'jaliklari chopon, postin va telpaklar tayyorlash bilan shug'ullanganlar. O.S. Sodiqov tadqiqotida ularning mahallalari haqida keng ma'lumotlar berilgan.

---

<sup>3</sup> Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. / Исследование и описание документов с историческим введением // Новые источники для истории Средней Азии. – Л.: Издание Государственной Публичной Библиотеки, 1940. –С. 287.

Mustaqillik yillarida Turkiston, Xorazm, Buxoro respublikalaridagi mintaqaviy qurolli harakatlar, ularning butun Turkiston hududidagi ozodlik harakati rivojiga qo'shgan hissasi O'zbekiston tarixi fanida birinchi marta har tomonlama keng va chuqur o'rganildi. Xususan, bu harakatlarning kelib chiqish sabablari va rivojlanishi; harakatlantiruvchi kuchlarning etnik va ijtimoiy tarkibi; siyosiy, tashkiliy, harbiy shakli va tuzilishi; rahbarlari va mafkurachilari; qurolli harakatlarning mintaqadagi va umuman o'lkadagi siyosiy jarayonlarga ta'siri; xorijiy mamlakatlar bilan aloqalari; mag'lubiyatga uchrash sabablari kabilar bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Mintaqaviy harakatlarning ushbu jihatlarini o'rganish asosida mazkur maqolada ularning umumiy va o'ziga xos ko'rinishlari, butun Turkiston hududidagi ozodlik harakatidagi markazdan qochish va markazga intilish an'analarining o'zaro aloqalari xususidagi yangi nazariy fikrlar va xulosalar ilgari surilgan. Aynan sovet tuzumining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy strategiya va taktikasining oqibatlari bu mintaqalarning har birida uzoq yillar davomida butun Turkiston mintaqasi siyosiy sahnasini harakatga keltiruvchi omillardan biri bo'lgan qurolli qarshilikning kelib chiqishiga sabab bo'lgan keskin vaziyatni yaratdi. O'lka aholisining barcha ijtimoiy qatlam va toifalarini qamrab olgan mustamlakachilikka qarshi kayfiyati sovet tuzumiga qarshi qurolli kurashning umumxalq va ommaviy xarakgerga ega bo'lishini ta'minladi va turkistonliklarning ozodlik hamda mustaqillik uchun olib borgan ko'p asrlik milliy ozodlik harakatlaridagi o'ziga xos o'rnini belgilab berdi.

**Xulosa:** Turkiston o'lkasidagi mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar, tarixiy- madaniy rivojlanish, diniy omillar, avvalgi davrlarning g'oyaviy merosi, milliy o'z-o'zini anglashning an'anaviy shakllari, diniy islohotchilik ta'limoti, jadidchilikning liberal-ma'rifatparvarlik g'oyalari ta'sirida shakllangan yaxlit mafkura va turli konsepsiyalarining murakkab zanjiri barcha mintaqalar uchun umumiy bo'lib, u o'zining milliy mustaqillik, milliy davlatchilikni qayta tiklash haqidagi yetakchi g'oyalari bilan birga, millatchilik mafkurasini tashkil etgan. Bu g'oyalarni amalga oshirish maqsadida Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati, Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyati, buxorolik qo'zg'olonchilarning Buxoroda monarxiyani qayta tiklashga intilganlari kabi tajribalar bo'yicha

tadqiqotlar olib borilgan. Ularning natijalariga ko'ra, bu tajribalar monarxiyaga asoslangan boshqaruv shaklini tiklash, islom respublikasini o'rnatishdan tortib, demokratik davlat qurishgacha bo'lgan o'zaro qarama-qarshi intilishlarni o'zida ifodalagan bo'lishiga qaramay, ularning barchasi mustaqillikni qo'lga kiritish, o'z milliy davlatchiligini qayta tiklashdan iborat yagona maqsadni ko'zda tutar edi. Umuman olganda, maqsadlar, ijtimoiy negizlar, mafkuralar, tashkiliy tuzilmalarning umumiyliги mintaqaviy harakatlarni yagona-butun Turkiston mintaqasi miqyosidagi ozodlikka erishish maqsadi tashkil qilgan edi desak mubolag'a bo'lmaydi.

**FOYDALANGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:**

1. Ахмеджанов Г.А. Советская историография присоединения Средней Азии к России. – Ташкент, 1989. – 156 С.;
2. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суфорилиш тарихи (қадим замонлардан хозиргача). – Тошкент: ЎзССР ФА, 1959. – Б. 718;
3. Тухтаметов Т.Г. Россия и Хива в конце XIX – начале XX в. Победа Хорезмской революции. –М., 1969. – С. 108-109.
4. Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. – Т.: Наука, 1965. –С. 408.; Ахунова М.А., Лунин Б.В. История исторической науки в Узбекистане. – Т., 1970. – 256 с.;
5. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. / Исследование и описание документов с историческим введением // Новые источники для истории Средней Азии. – Л.: Издание Государственной Публичной Библиотеки, 1940. –С. 287.